



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10	Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14	Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19	Dadonova Aziza Tulkunovna
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30	Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili 35	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41	Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47	Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50	Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54	Qobilov Voxidjon Zoxidovich
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58	Мухамеджанова Римма Рашидовна
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66	Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70	Sadriddinova Feruza Meliyevna
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75	Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar 80	Qudratov O'ktam G'ofurovich
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari 85	Tursunov Xusniddin Isomovich
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari 88	Safarova Halovat Barnoyevna
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari 91	Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap) 97	Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli 101	Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloyevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	



FRAZEOLOGIK DERIVATSIYANING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Raxmonova Gavhar Nuritdinovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Xorijiy tillar” kafedrası assistent o'qituvchisi



ORCID:0009-0001-6579-5479

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologik derivatsiyaning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi lingvomadaniy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar derivatsiyasida milliy madaniyat, mentalitet hamda konseptual dunyoqarashning o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari lingvomadaniy omillar frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlarida umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlardan kelib chiqadigan farqlar ham mavjudligi asoslandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy determinantlarini qiyosiy nuqtayi nazardan tizimli tahlil qilish hamda ularning o'zaro bog'liqligini ochib berishdan iborat. Olingan natijalar frazeologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik soha-laridagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: frazeologik derivatsiya, lingvomadaniyat, frazeologik birlik, lingvomadaniy omillar, derivatsion mexanizm, struktur-semantik tahlil, konsept, o'zbek va ingliz tillari.

Abstract: This article examines the linguocultural factors influencing the formation and development of phraseological derivation. The primary objective of the study is to determine the role of national culture, mentality, and conceptual world-view in the derivation of phraseological units in Uzbek and English. The findings demonstrate that linguocultural factors play a crucial role in the structural and semantic development of phraseological units.

Furthermore, the study identifies both universal patterns and language-specific features in the derivational characteristics of Uzbek and English phraseological units, reflecting their distinctive cultural backgrounds. The scientific novelty of the research lies in the systematic comparative analysis of the linguocultural determinants of phraseological derivation and the elucidation of their interrelationships. The results contribute to the theoretical and practical advancement of phraseology, linguoculturology, and comparative linguistics.

Key words: phraseological derivation, linguoculture, phraseological unit, linguocultural factors, derivational mechanism, structural-semantic analysis, concept, Uzbek and English.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвокультурные факторы, оказывающие влияние на формирование и развитие фразеологической деривации. Основная цель исследования заключается в определении роли национальной культуры, менталитета и концептуальной картины мира в деривации фразеологических единиц узбекского и английского языков. Результаты исследования свидетельствуют о том, что лингвокультурные факторы играют важную роль в структурно-семантическом развитии фразеологических единиц.

Кроме того, выявлены как общие закономерности, так и национально обусловленные особенности деривации фразеологических единиц в узбекском и английском языках. Научная новизна исследования заключается в системном сравнительном анализе лингвокультурных детерминант фразеологической деривации и раскрытии их взаимосвязей. Полученные результаты имеют теоретическое и практическое значение для дальнейших исследований в области фразеологии, лингвокультурологии и сравнительного языкознания.

Ключевые слова: фразеологическая деривация, лингвокультура, фразеологическая единица, лингвокультурные факторы, деривационный механизм, структурно-семантический анализ, концепт, узбекский и английский языки.

KIRISH

Bugungi kunda tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, dunyoqarashi va mentalitetini aks



ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ularning derivatsion taraqqiyoti esa faqat ichki lisoniy qonuniyatlar bilan emas, balki lingvomadaniy omillar ta'sirida ham shakllanadi. Biroq frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy asoslari, ayniqsa o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion jarayonlari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti frazeologik derivatsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi lingvomadaniy omillar hamda ularning struktur-semantik xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar derivatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi lingvomadaniy omillarni aniqlash, ularning derivatsion jarayondagi o'rni va funksiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- frazeologik derivatsiya va lingvomadaniyatga oid nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- frazeologik derivatsiyaga ta'sir etuvchi asosiy lingvomadaniy omillarni aniqlash;
- o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;
- lingvomadaniy omillarning frazeologik birliklarning struktur va semantik taraqqiyotiga ta'sirini misollar asosida yoritish;
- tadqiqot natijalari asosida frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Frazeologik birliklar va ularning derivatsion xususiyatlari tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur masala ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Frazeologiyani nazariy asoslarini ishlab chiqishda V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N.N. Amosova, V.N. Teliya hamda V.G. Gak kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ular frazeologik birliklarning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini tahlil qilib, ularning til tizimidagi o'rni hamda taraqqiyot qonuniyatlarini yoritganlar ^[1; 2].

Xususan, V.N. Teliya frazeologik birliklarni lingvomadaniy hodisa sifatida baholab, ularda xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va madaniy kodlari mujassam ekanligini ta'kidlaydi ^[3].

A.V. Kunin esa frazeologik birliklarning hosil bo'lishi, transformatsiyasi va rivojlanish mexanizmlarini tizimli ravishda tadqiq etib, derivatsion jarayonlarning frazeologiya taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslab bergan ^[2].

N.N. Amosova frazeologik birliklarning kontekst bilan bog'liqligini yoritib, ularning semantik barqarorligini izohlashga alohida e'tibor qaratgan ^[4].

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Hojiyev hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Sh. Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlarini izchil tavsiflagan ^[5].

B. Yo'ldoshev esa frazeologik birliklarning uslubiy, semantik va funksional jihatlarini tahlil qilish orqali ularning nutqdagi qo'llanish imkoniyatlarini yoritgan ^[6].

So'nggi yillarda lingvokulturologik tadqiqotlarda frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmunini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida frazeologik derivatsiya alohida lingvomadaniy hodisa sifatida emas, balki semantik yoki struktur o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy omillari qiyosiy aspektida yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda frazeologik derivatsiya tilning ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda milliy madaniyat, mentalitet, konseptual dunyoqarash va madaniy kodlar ta'sirida shakllanuvchi lingvomadaniy jarayon sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida frazeologik birliklarning derivatsion mexanizmlariga ta'sir etuvchi lingvomadaniy omillar qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini ilmiy asosda yoritiladi. Shu jihatdan ushbu tadqiqot frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy tabiatini chuqurroq ochib berishga hamda qiyosiy frazeologiya va lingvokulturologiya rivojiga muayyan ilmiy hissa qo'shadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy omillarini aniqlash va ularning o'zbek hamda ingliz tillaridagi namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-komparativ, tavsifiy, struktur-semantik hamda lingvomadaniy tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Qiyosiy-komparativ metod orqali o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlari o'zaro solishtirildi. Bunda frazeologik birliklarning shakllanishi, semantik taraqqiyoti va derivatsion modellari-dagi umumiy hamda farqli jihatlar aniqlandi. Ushbu metod ikki tilga xos lingvomadaniy omillarning frazeologik derivatsiyaga ko'rsatadigan ta'sirini qiyosiy baholash imkonini berdi.

Tavsifiy metod yordamida frazeologik birliklarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tizimli ravishda izohlandi hamda ularning derivatsion jarayondagi o'rni tavsiflandi. Struktur-semantik tahlil asosida frazeologik birliklarning ichki tuzilishi, komponentlar o'rtasidagi semantik munosabatlar va derivatsiya natijasida yuzaga kelgan ma'no o'zgarishlari o'rganildi.

Lingvomadaniy tahlil metodi orqali frazeologik birliklarning hosil bo'lishi va rivojlanishida milliy madaniyat, tarixiy tajriba, urf-odatlar, mentalitet hamda madaniy kodlarning ta'siri tahlil qilindi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar tarkibida aks etgan milliy-madaniy konseptlar aniqlanib, ularning derivatsion jarayonga ta'siri qiyosiy jihatdan baholandi.

Tadqiqot materiallari sifatida o'zbek va ingliz tillarining frazeologik lug'atlari, ilmiy adabiyotlar hamda badiiy asarlardan tanlab olingan frazeologik birliklardan foydalanildi. Olingan natijalar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash va umumlashtirish orqali tizimlashtirildi. Qo'llanilgan metodlar frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy omillarini har tomonlama yoritish hamda tadqiqotning ilmiy xulosalarini ishonchli asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frazeologik derivatsiya tilning dinamik taraqqiyotini aks ettiruvchi murakkab jarayonlardan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida lingvistik omillar bilan bir qatorda lingvomadaniy omillar ham muhim o'rin egallaydi. Frazeologik birliklarning yangi ma'no kasb etishi, semantik kengayishi yoki transformatsiyaga uchrashi ko'pincha muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlar, diniy qarashlari va milliy mentaliteti bilan bog'liq holda yuzaga keladi [2; 3].

Mazkur tadqiqot doirasida o'zbek va ingliz tillaridan tanlab olingan frazeologik birliklar lingvomadaniy nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda frazeologik derivatsiyaning asosiy manbai sifatida inson faoliyati, tabiat hodisalari, hayvonot olami, diniy qarashlar hamda milliy qadriyatlar namoyon bo'ladi. Biroq ushbu omillarning til tizimida aks etish darajasi va semantik rivojlanish yo'nalishlari har bir xalqning madaniy tajribasiga qarab farqlanadi.

Masalan, o'zbek tilidagi "ko'ngli tog'dek ko'tarildi", "ko'ngliga qil sig'maydi", "boshi osmonga yetdi" kabi frazeologik birliklar insonning ruhiy holatini milliy obrazlar orqali ifodalasa, ingliz tilidagi "break the ice", "spill the beans", "hit the nail on the head" kabi birliklar tarixiy va ijtimoiy tajriba asosida shakllangan konseptlarni aks ettiradi. Har ikki tilda derivatsiya jarayonida obrazlilik saqlanib qolgan bo'lsa-da, uning lingvomadaniy manbalari turlicha ekanligi kuzatildi.

Tahlil davomida lingvomadaniy omillar shartli ravishda besh guruhga ajratildi: milliy-madaniy omillar, tarixiy omillar, diniy omillar, etnografik omillar hamda konseptual omillar. Har bir omil frazeologik derivatsiyaning yuzaga kelishi va semantik taraqqiyotiga turli darajada ta'sir ko'rsatishi kuzatildi.

1-jadval

№	Lingvomadaniy omil	O'zbek tilida namoyon bo'lishi	Ingliz tilida namoyon bo'lishi
1	Milliy urf-odatlar	Urf-odat va qadriyatlar bilan bog'liq iboralar	An'ana va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi iboralar
2	Tarixiy omillar	Tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog'liq frazemalar	Tarixiy hodisalar asosidagi idiomalar
3	Diniy omillar	Islom madaniyatiga oid birliklar	Injil va xristian madaniyatiga oid birliklar
4	Etnografik omillar	Turmush tarzi va milliy urf-odatlar	Maishiy hayot va kundalik madaniyat
5	Konseptual omillar	"Ko'ngil", "yurak", "or" kabi konseptlar	"Heart", "mind", "face" kabi konseptlar

Jadval ma'lumotlari frazeologik derivatsiya jarayonida konseptual va milliy-madaniy omillarning eng faol rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayniqsa, insonning ichki kechinmalari va milliy qadriyatlarini ifodalovchi konseptlar yangi frazeologik variantlarning yuzaga kelishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy va



diniy omillar ayrim frazeologik birliklarning semantik rivojlanishida muhim o'rin egallasa-da, ularning derivatsion faolligi konseptual omillarga nisbatan cheklanganligi kuzatildi.

Frazeologik derivatsiya jarayonida frazeologik birliklarning shakliy tuzilishi nisbatan barqaror saqlansa-da, ularning semantik va pragmatik imkoniyatlari nutqiy ehtiyoj hamda lingvomadaniy omillar ta'sirida kengayib boradi. O'zbek va ingliz tillari materiallari shuni ko'rsatadiki, bir xil konseptni ifodalovchi frazeologik birliklar turli madaniy kodlar asosida shakllanadi va ularning derivatsion rivojlanish bosqichlari ham bir-biridan farq qiladi.

Masalan, o'zbek tilidagi "ko'ngli tog'dek ko'tarildi" frazeologik birligi quvonch va ruhiy yuksalish holatini ifodalaydi. Ushbu birlikning asosida tog' konsepti yuksaklik, ulug'vorlik va barqarorlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq jarayonida ushbu birlikning "ko'ngli tog' bo'ldi", "ko'ngli tog'dek", "tog'dek ko'ngil" kabi variantlari uchraydi. Bunday o'zgarishlar derivatsiya natijasida yuzaga kelib, iboraning ekspressivligini saqlagan holda yangi uslubiy vazifalarni bajarishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi break the ice idiomasi dastlab odamlar o'rtasidagi sovuqlikni bartaraf etish ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, zamonaviy nutqda u muloqotni boshlash, ijtimoiy to'siqlarni yengish hamda psixologik yaqinlikni hosil qilish kabi qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi. Mazkur birlikning semantik kengayishi ingliz jamiyatidagi kommunikativ madaniyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu holat lingvomadaniy omillarning derivatsion jarayondagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zbek tilidagi "ko'z yumdi" frazeologik birligi dastlab "vafot etdi" ma'nosida qo'llansa, badiiy va publitsistik matnlarda "e'tibor bermadi", "atayin e'tiborsiz qoldirdi" kabi ko'chma ma'nolarda ham uchraydi. Ingliz tilidagi keep an eye on idiomasi esa "kuzatmoq", "nazorat qilmoq" ma'nolaridan tashqari, muayyan vaziyatga qarab "g'amxo'rlik qilmoq" yoki "himoya qilmoq" semalarini ham ifodalashi mumkin. Bunday semantik kengayishlar derivatsiyaning pragmatik va lingvomadaniy omillar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

2-jadval: O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlari

No	Frazeologik birlik	Til	Asosiy ma'nosi	Derivatsion o'zgarish	Lingvomadaniy omil
1	Ko'ngli tog'dek ko'tarildi	O'zbek	Quvonmoq	Emotsional-ekspressiv variantlar	Milliy mentalitet
2	Ko'z yumdi	O'zbek	Vafot etdi	Semantik kengayish	Madaniy va diniy qarashlar
3	Tili uzun	O'zbek	Sergap	Baholovchi ma'no kuchayishi	Axloqiy qadriyatlar
4	Break the ice	Ingliz	Suhbatni boshlamoq	Pragmatik kengayish	Kommunikativ madaniyat
5	Keep an eye on	Ingliz	Kuzatmoq	Qo'shimcha semalar hosil bo'lishi	Ijtimoiy munosabatlar
6	Hit the nail on the head	Ingliz	To'g'ri fikr bildirmoq	Uslubiy faollashuv	Amaliy tafakkur

Jadvaldan ko'rinadiki, har ikki tilda derivatsion jarayonlar semantik rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilida derivatsiya ko'proq milliy mentalitet, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlar ta'sirida yuzaga kelsa, ingliz tilida kommunikativ madaniyat, pragmatik ehtiyoj va individual tajriba ustunlik qiladi. Bu esa frazeologik derivatsiyaning universal til hodisasi bo'lishi bilan birga, uning namoyon bo'lish shakllari har bir xalqning lingvomadaniy xususiyatlari bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida lingvomadaniy omillarning frazeologik derivatsiyaga ta'sir darajasi shartli ravishda baholandi (1-diagramma).

Lingvomadaniy omil	Ta'sir darajasi (%)
Konseptual omillar	34
Milliy-madaniy omillar	28
Etnografik omillar	18
Tarixiy omillar	12
Diniy omillar	8

Diagramma natijalari konseptual va milliy-madaniy omillar frazeologik derivatsiyaning eng faol determinantlari ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, "ko'ngil", "yurak", "aql", heart, mind kabi konseptlar asosida shakllangan frazeologik birliklar yangi semantik va uslubiy variantlarning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Tarixiy va diniy omillar esa frazeologik birliklarning kelib chiqishi hamda dastlabki motivatsiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning keyingi derivatsion rivojlanishiga ta'siri nisbatan cheklanganligi kuzatildi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari frazeologik derivatsiyaning shakllanishi va rivojlanishida lingvomadaniy omillar muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tahlillar o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlari faqat tilning ichki qonuniyatlari bilan emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti, madaniy qadriyatlar hamda konseptual dunyoqarashi bilan ham uzviy bog'liqligini tasdiqladi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda frazeologik derivatsiyaning umumiy qonuniyatlari mavjudligi bilan birga, ularning namoyon bo'lishida milliy-madaniy xususiyatlar muhim rol o'ynashi aniqlandi. O'zbek tilida derivatsion jarayonlar ko'proq milliy urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar va etnomadaniy konseptlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida kommunikativ madaniyat, pragmatik ehtiyoj hamda individual tafakkur yetakchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganishga oid ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy jihatlari qiyosiy asosda yorituvchi tadqiqotlar soni yetarli emas. Shuningdek, derivatsion jarayonlarni aks ettiruvchi elektron korpuslar va zamonaviy frazeologik ma'lumotlar bazalarining cheklanganligi tadqiqot imkoniyatlarini toraytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlarini o'zbek va boshqa tillar kesimida yanada kengroq qiyosiy tadqiq etish;
- zamonaviy badiiy, publitsistik va media matnlar asosida frazeologik birliklarning elektron korpusini yaratish;
- lingvokulturologiya va frazeologiya yo'nalishlarida derivatsion jarayonlarni yorituvchi o'quv hamda ilmiy-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish;
- frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlarini tarjimashunoslik hamda xorijiy tillarni o'qitish metodikasida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish frazeologik birliklarning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash, ularning milliy-madaniy mazmunini ochib berish hamda qiyosiy tilshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari frazeologiya, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muayyan nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: Наука, 1977. - 312 с.
2. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. пособие. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Высшая школа, 1996. - 381 с.
3. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. - 288 с.
4. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. - Л.: Издательство Ленинградского университета, 1963. - 208 с.
5. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. - 379 b.
6. Yo'ldoshev B. O'zbek tili frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. - Toshkent: Fan, 2016. - 240 b.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980. - 242 p.
8. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications / ed. by A. P. Cowie. - Oxford: Clarendon Press, 1998. - 272 p.
9. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. - Oxford: Oxford University Press, 1996. - 265 p.
10. Dobrovol'skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. - Amsterdam: Elsevier, 2005. - 448 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.